



## **XALQ DEPUTATLARI ULUG'NOR TUMANI KENGASHINING QARORI**

### **Ulug'nor tumani**

2022 - yil 25 - aprel

VI-37-36-1-26-K/22

Ulug'nor tuman hokimligi

### **Xalq deputatlari Ulug'nor tumani Kengashi deputatligiga bo'shab qolgan 6-“Fazogir” saylov okrugida o'tkazilgan saylovni adolatlilik va shaffofligini o'rganish bo'yicha ishchi guruh tuzish haqida**

Xalq deputatlari Ulug'nor tumani Kengashi deputatligiga bo'shab qolgan o'rinlar uchun 2022 yil 17 aprel kuni o'tkazilgan saylov yakunlari yuzasidan tuman saylov komissiyasi raisi Nazarov Odiljon Mirzaevichning axborotini eshitib, siyosiy partiyalar tomonidan bildirilgan fikrlar, etirozlar va tuman Kengashiga qilgan murojaatlarni ko'rib chiqib O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Ulug'nor tumani Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Ulug'nor tumani Kengashi deputatligiga bo'shab qolgan o'rinlar uchun 2022 yil 17 aprel kuni o'tkazilgan saylov yakunlari yuzasidan siyosiy partiyalar tomonidan bildirilgan fikrlar, etirozlar va tuman Kengashiga qilgan murojaatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 6-“Fazogir” saylov okrugida o'tkazilgan saylovni adolatlilik va shaffofligini o'rganish bo'yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tuzilsin.

3. Tuman saylov komissiyasi raisi O.Nazarovga:

- 6-“Fazogir” saylov okrugida o'tkazilgan saylov yakunlari bo'yicha barcha asosli xujjatlarni ishchi guruhga taqdim etsin.

4. Ishchi guruhga 6-“Fazogir” saylov okrugida o'tkazilgan saylovni adolatlilik va shaffofligini o'rganish bo'yicha yakuniy ma'lumotlarni Xalq deputatlari Ulug'nor tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga taqdim etsin.

5. Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi K.G'oziyevga:

- Ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan xujjatlar belgilangan tartibda doimiy komissiya a'zolari bilan o'rganib chiqish;

- Qonun buzilish holatlari bor yoki yo'qligini aniqlash va yakuniy xulosani tuman saylov komissiyasiga taqdim etsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ulug'nor tuman Kengashi kotibiyat mudiri G.Bobojonova zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Ulug'nor tuman  
Kengashining XXXVII-sessiyasi  
raisi**



**K.G'oziyev**

Xalq deputatlari Ulug'nor tuman  
Kengashining  
2022 yil 25 apreldagi  
VI-37-36-1-26-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**6-“Fazogir” saylov okrugida o'tkazilgan saylovni adolatlilik  
va shaffofligini o'rganish bo'yicha ishchi guruh**

**TARKIBI**

<b>№</b>	<b>F.I.O</b>	<b>-</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1.	Abdulaxatov Sattor	-	Nafaqada, Xalq deputatlari Ulug'nor tuman Kengashi deputati
2.	Usmonov Abdumalik Abduraxmonovich	-	Xalq demokratik partiyasi Ulug'nor tuman Kengashi raisi
3.	Mutalibov Shoxruxbek Erkinjon o'g'li	-	Xalq deputatlari Ulug'nor tuman Kengashi kotibiyat bosh mutaxassisi
4.	Yoqubjonov Sherali Mahammadjon o'g'li	-	Xalq ta'limi bo'limi metodisti (17-Obod OSK a'zosi)
5.	Abdullayeva Shaxlo Abdumannonovna	-	Tuman saylov komissiyasi a'zosi